

VOKAL ANSAMBLIDA INTONATSIYA VA GARMONIK ESHITISHNI RIVOJLANTIRISH USULLARI

<https://doi.org/10.70728/orien.v07.i01.004>

Kamolaxon Shuxratjon-qizi Jalilova

O'zbekiston davlat konservatoriyasi huzuridagi Botir Zokirov nomidagi milliy
estrada san'ati instituti

Annotatsiya: Mazkur maqolada vokal ansamblda ijrochilarning musiqiy-intellektual salohiyatini oshirishda intonatsiya aniqligi va garmonik eshitishni rivojlantirish masalalari ilmiy-nazariy hamda amaliy jihatdan tahlil etilgan. Tadqiqotda vokal ansamblda sof intonatsiyani shakllantirish, ko'p ovozli kuylash jarayonida garmonik muvozanatni ta'minlash, vertikal va gorizont al eshitish malakalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi samarali pedagogik usullar yoritilgan. Shuningdek, maqolada ansambl ijrochilarining ovozlarni muvofiqlashtirish, akkordlarni sezish, intonatsion barqarorlikni ta'minlashda solfedjio, vokal mashqlar, eshitish tahlili va interaktiv mashg'ulotlarning ahamiyati asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: vokal ansambl, intonatsiya, garmonik eshitish, musiqiy eshitish, sof intonatsiya, akkord sezgisi, vokal mashqlar, solfedjio, ansambl madaniyati, eshitish tahlili

METHODS OF DEVELOPING INTONATION AND HARMONIC HEARING IN A VOCAL ENSEMBLE

Kamolakhan Shukhratjon-qizi Jalilova

Botir Zokirov National Institute of Pop Art under the State Conservatory of
Uzbekistan

Abstract: This article analyzes, from scientific-theoretical and practical perspectives, the issues of developing intonation accuracy and harmonic hearing as key factors in enhancing the musical and intellectual potential of vocal ensemble performers. The study highlights effective pedagogical methods aimed at forming pure intonation, ensuring harmonic balance in the process of polyphonic singing, and developing vertical and horizontal listening skills. In addition, the importance of solfeggio, vocal exercises, auditory analysis, and interactive training methods in coordinating ensemble voices, perceiving chord structures, and maintaining intonational stability is substantiated.

Keywords: vocal ensemble, intonation, harmonic hearing, musical hearing, pure intonation, chord perception, vocal exercises, solfeggio, ensemble culture, auditory analysis

Kirish

Vokal ansambl san'ati ijrochilardan nafaqat yakka ovozning texnik mukammalligini, balki jamoaviy ijro madaniyatini, ya'ni umumiy intonatsiya, tembr uyg'unligi va garmonik muvozanatni talab etadi. Ansambl ijrosida har bir xonandaning ovozi mustaqil bo'lishi bilan birga, umumiy tovush tizimiga bo'ysunishi lozim. Shu sababli intonatsiya va garmonik eshitishni rivojlantirish vokal ansambl mashg'ulotlarining eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Amaliyot shuni ko'rsatadiki, ko'plab ansambllarda ijro sifati aynan sof intonatsiya va garmonik eshitish yetarli darajada rivojlanmaganligi sababli pasayadi. Bu holat asosan musiqiy eshitishning yetarli darajada shakllanmaganligi, ansambl a'zolarining bir-birini eshitmasligi yoki noto'g'ri nafas va tovush chiqarish bilan bog'liq bo'ladi. Shu bois mazkur maqolada ushbu muammolarning yechimi sifatida samarali pedagogik usullar tahlil qilinadi.

Intonatsiya tushunchasi va uning vokal ansamblidagi ahamiyati

Intonatsiya - bu musiqiy tovushlarning baland-pastligini aniq va sof ifodalash jarayonidir. Vokal ansamblida intonatsiya faqatgina yakka xonandaning to'g'ri kuylashi bilangina emas, balki barcha ovozlarning o'zaro uyg'unlashuvi orqali namoyon bo'ladi. Agar ansamblning bir a'zosi intonatsion jihatdan xatoga yo'l qo'ysa, bu butun garmonik tuzilmaning buzilishiga olib keladi.

Ansambl ijrosida intonatsiya quyidagi omillar bilan chambarchas bog'liq:
musiqiy eshitish darajasi;

to'g'ri nafas olish va tovush hosil qilish;

ovoz diapazoniga mos partiyani tanlash;

garmonik eshitish va ichki eshitishning rivojlanganligi.

Shu nuqtai nazardan, intonatsiyani rivojlantirish vokal texnika bilan bir qatorda eshitish madaniyatini shakllantirishni ham talab etadi

Garmonik eshitish va uning ansambl ijrosidagi o'rni

Garmonik eshitish - bu bir vaqtning o'zida bir nechta tovushlarni idrok etish, ularning o'zaro munosabatini his qilish va garmonik uyg'unlikni anglash qobiliyatidir. Vokal ansamblida garmonik eshitish har bir xonandaga o'z partiyasini mustaqil kuylagan holda umumiy akkord ichida to'g'ri joylashish imkonini beradi.

Rivojlangan garmonik eshitish quyidagi jihatlarda muhim ahamiyat kasb etadi:

ansamblida sof akkordlarni shakllantirish;

dissonans va konsonansni farqlash;

polifonik va garmonik fakturalarni to'g'ri ijro etish;

ovozlar muvozanatini saqlash.

Ayniqsa, ko'p ovozli vokal ansambllarda garmonik eshitish yetarli darajada bo'lmasa, ijro mexanik va badiiy jihatdan sayoz bo'lib qoladi.

Intonatsiya va garmonik eshitishni rivojlantirish usullari

Bosqichma bosqich eshitish usullari.

Mashg'ulotlarni oddiy intervallar (prima, sekunda, tersiya)dan boshlab, asta-sekin murakkab intervallar va akkordlarga o'tish tavsiya etiladi. Dastlab bir ovozda, keyinchalik ikki va uch ovozli mashqlar qo'llaniladi. Mazkur usulda kuylash vokal ansamblida ijrochilarni intonatsiya aniqligini, musiqiy eshitishni vas hu bilan birgalikda garmonik hamohanglikni his qilishini rivojlantiradi.

A capella kuylash

Cholg'u jo'rligisiz kuylash intonatsiyani aniqlashtirishda eng samarali vositalardan biridir. A cappella mashqlar xonandani ichki eshitishga tayantiradi va tovush balandligini mustaqil nazorat qilishga o'rgatadi. Vokal ansambl mashg'ulotlarida a capella kuylash ijrochilarda: tovush balandligini mustaqil nazorat qilish, o'z partiyasini ansambl tarkibidagi boshqa ovozlarni bilan uyg'unlashtirish, musiqiy xotira va diqqatni rivojlantirishga yordam beradi.

Akkordlar bilan ishlash

Ansambl a'zolari akkordlarni navbatma-navbat yoki birgalikda kuylash orqali garmonik eshitishni rivojlantiradilar. Har bir ovoz akkord ichida o'z funksiyasini anglab yetishi muhimdir. Mazkur kuylash usulida ijrochilar, intonatsiya aniqligini mustahkamlash, garmonik eshitishni rivojlantirish, ansambl ichidagi ovozlarni uyg'unligini shakllantiradi va rivojlantiradi.

Tinglash va tahlil qilish

Professional vokal ansambllar ijrosini tinglash va tahlil qilish talabalarda ideal tovush tasavvurini shakllantiradi. Tinglash jarayonida intonatsiya, tembr va garmonik muvozanatga alohida e'tibor qaratiladi.

Nafas va vokal texnika bilan bog'liq mashqlar.

To'g'ri nafas va tayanchli tovush intonatsiya barqarorligining asosidir. Nafas va vokal texnik mashqlar xonandalar tomonidan ovoz sifatini oshirish, tovush balandligini nazorat qilish va musiqiy ifodani kuchaytirish maqsadida amalga oshiriladigan tizimli mashqlardir. Ushbu mashqlar vokal ansamblida ijrochilarning nafasni boshqarish, vokal rezonanslarni rivojlantirish, intonatsiya aniqligi va umumiy ovozlarni hamohangligini shakllantirishga xizmat qiladi. Shu sababli vokal mashqlar intonatsion mashqlar bilan uzviy bog'langan holda olib borilishi lozim.

Vokal ansamblida intonatsiya va garmonik eshitishni rivojlantirish murakkab, ammo zarur pedagogik jarayondir. Ushbu jarayon nafaqat musiqiy eshitishni, balki ijrochilarning badiiy tafakkurini ham boyitadi. To'g'ri tanlangan metodlar va izchil mashg'ulotlar orqali ansambl ijrosining sifati sezilarli darajada oshadi. Mazkur

maqolada bayon etilgan usullar vokal ansamblar bilan ishlash amaliyotida samarali qo'llanishi mumkin.

Xulosa

Vokal ansamblida intonatsiya aniqligi va garmonik eshitishning rivojlanganligi ijrochilik madaniyatining asosiy mezonlaridan biri hisoblanadi. Tadqiqot jarayonida aniqlanishicha, ko'p ovozli kuylashda sof intonatsiyani ta'minlash nafaqat vokal-texnik tayyorgarlikka, balki ijrochilarning eshitish tahlili, musiqiy tafakkuri va ansambl ichidagi o'zaro eshitish madaniyatiga ham bevosita bog'liqdir.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, vokal ansamblida intonatsiya va garmonik eshitishni rivojlantirishda solfedjio mashqlari, intervalli va akkordli kuylash, ovozlarni muvofiqlashtirishga qaratilgan vokal mashqlar, shuningdek, eshitish orqali nazorat qilishga asoslangan interaktiv metodlar samarali natija beradi. Ayniqsa, vertikal (garmonik) va gorizontal (melodik) eshitishni uyg'un rivojlantirish ijrochilarning intonatsion barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, vokal ansambl mashg'ulotlarida intonatsiya va garmonik eshitishni rivojlantirishga yo'naltirilgan tizimli, bosqichma-bosqich va maqsadga muvofiq metodik yondashuvlardan foydalanish ijrochilarning ansamblga moslashuvi, ko'p ovozli ijroning sifat darajasi hamda umumiy musiqiy-estetik saviyasini oshirishga imkon yaratadi. Mazkur tadqiqot natijalari vokal ta'lim jarayonini takomillashtirish va ansambl ijrochiligida yuqori badiiy natijalarga erishishda metodik asos bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alekseyev A. Vokal san'ati metodikasi. - Moskva: Muzika
2. Dmitriyev L. B. Xonandalik ovozi va uni tarbiyalash. - Moskva: Muzika
3. Abdullayev S., Qodirov R. Xor va vokal ansambl ijrochiligi asoslari. - Toshkent: O'qituvchi,
4. Karimova G. Vokal pedagogika asoslari. - Toshkent: San'at, 2018.
5. Sokolov V. Xor va ansambl bilan ishlash metodikasi. - Sankt-Peterburg: Kompozitor.
6. Rojdestvenskaya N. Solfedjio va garmonik eshitish. - Moskva: Muzika.